

O'ZBEKISTONDA DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARI

Djabborov Shuhrat Baxtiyorovich

Aniq va Ijtimoiy Fanlar universiteti tarix yo'nalishi, 1-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10608183>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida davlatning din bilan munosabatlari mazmun-mohiyatini belgilovchi qator tamoyillar hamda O'zbekiston milliy mafkurasida din va siyosatning o'rni masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: davlat va din munosabatlari, milliy mafkura, asosiy tamoyillar, fuqarolar e'tiqodi.

RELATIONS BETWEEN THE STATE AND RELIGION IN UZBEKISTAN

Abstract. In this article, a number of principles defining the essence of the relationship between the state and religion in the Republic of Uzbekistan and the role of religion and politics in the national ideology of Uzbekistan are discussed.

Key words: relations between the state and religion, national ideology, basic principles, faith of citizens.

ОТНОШЕНИЯ ГОСУДАРСТВА И РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье рассмотрен ряд принципов, определяющих сущность взаимоотношений государства и религии в Республике Узбекистан, а также роль религии и политики в национальной идеологии Узбекистана.

Ключевые слова: отношения государства и религии, национальная идеология, основные принципы, вера граждан.

O'zbekiston respublikasida davlatning din bilan munosabatlari mazmun-mohiyatini belgilovchi qator tamoyillarga quyidagilar kiradi:

- dindorlarning diniy tuyg'ularini xurmat qilish;
- diniy e'tiqodni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham xuquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;
- ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zaruriyati;
- dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishni ko'zlagan davlatimizning dinga munosabatini belgilovchi yuqoridagi mezon va tamoyillardan ikki asosiy xulosani chiqarish mumkin.

Birinchidan, O'zbekistonda din madaniy-mafkuraviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi barcha milliy qadriyatlar qatorida teng xuquqli qadriyat sifatida tan olinadi.

Ikkinchidan, sof diniy extiyojlarni qondirishdan tashqari xar qanday g'arazli maqsadga erishish yo'lida diniy omillardan foydalanish qat'iy man etiladi.

Ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurashning asosiy yo'nalishi islom diniga emas, balki islomning muqaddas aqidalarini niqob qilib olgan diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi qaratilishi lozim. Biroq, ayrim xorijiy mamlakatlar matbuotidagi maqolalarda islom dini, siyosiy

islom, terrorizm va diniy ekstremizm bir biri bilan qorishtirib yuborilmoqda. Hatto ayrim davlat arboblari (masalan, AQSh Prezidenti J. Bush) terrorizm bilan bevosita botiq bo'lgan siyosiy islomga xam beixtiyor islom dinining tarkibiy qismi, deb qarashmoqda. Vaholanki, terrorizm va islom ekstremizmi islom dini bilan faqat konfessional jihatdan bog'liqdir.

Islom dinini agressivlikda, terrorchilikda ayblash jaxon miqyosida islom nufuzining, islom mavqeinint oshib borishidan talvasaga tushish, global iqtisodiy, siyosiy madaniy va demografik jarayonlarda gegemonligini tarixan yo'qotayotgan postindustrial jamiyatlarning siyosiy kuchlari uchun xosdir.

O'zbekiston milliy mafkurasida din va siyosatning o'rni.

O'zbek davlatchiligi tarixiga nazar solinsa, diniy bag'rikenglik, vijdon va e'tiqod erkinligi asosiy prinsip va davlat siyosati darajasiga ko'tarib kelinganiga ishonch xosil qilamiz. Masalan, Toshkent Islom universiteti islom xuquqi kafedراسi mudiri Abdulxakim Juz-joniyning yozishicha, kushonlar davrida zarb qilingan tangalarning bir tomonida budda dini — davlat rasmiy dinining ramzi bo'lsa, ikkinchi tomonida boshqa bir dinning ramzi aks etgan. Islom dini kirib kelganda Buxoroda turli din tarafdorlari bo'lgan: budda, zardush-tiylik, nasroniylik, moniy va shamanizm kabi. Barcha din tarafdorlari bir-birlari bilan axil, inoq yashaganlar.

Xorazmshoxlar davlatida bundan 1000 yil avval faoliyat ko'rsatgan Ma'mun akademiyasida yirik siymolar - Ibn Sino, Beruniy, Ibn Iroqlar qatorida ikkita mashxur xristian olimlari — Abu Saxl Masixiy, Abul Xayr Xammor ijod qilishgan. Masixiy — bu xristian degani.

U Beruniyning Ibn Iroqdan keyingi ikkinchi ustoz bo'ladi. Ular bir akademiyaning a'zosi sifatida ko'p yillar birga ishlashgan. Yoki Sultoniya cherkovi (Eron Ozarbayjoni) ruxoniysining Amir Temur elchisi sifatida Yevropaga yuborilganligi diniy bag'rikenglik o'zbek xalqi mentalitetida chuqur ildizga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyoning tub xalqlari, xususan, o'zbek xalqi mentaliteti negizida asosan, islom dini yotgani inkor etib bo'lmas xaqiqatdir. Lekin, o'rta asrlarda umuman Markaziy Osiyo, xususan, o'lkamiz musulmonlari uchun diniy firqachilik yot xodisa bo'lgan. Buning sababini mintaqamizda o'ziga xos Movarounnaxr musulmon qonunchiligi — fiqx maktabining (jumladan, xanafiylik mazxabining) yuksak rivojlangani, uning boshqa maktablar ta'sirida emas, aksincha, u musulmon qonunshunosligining boshqa maktablariga o'z ta'sirini ko'rsatib turgani bilan bog'liq edi deyish mumkin. Shuning uchun xam musulmon dunyosi Markaziy Osiyoga nisbatan ta'sir o'tkazish mintaqasi emas, aksincha, diniy masalalarda xam undan o'rganishga munosib sarchashma sifatida qaragan.

Biroq, Rossiya istilosidan so'ng, xususan, sovet davrida islom diniga nisbatan o'tkazilgan tazyiq natijasida eng saloxiyatli iloxiyotchi olimlar qirib tashlandi. Maxalliy xayot darajasida saqlangan maxalliy islomga, asosan, diniy bilimlari sayoz, uzluksiz ta'qib ta'sirida o'ta radikallashgan shaxslar „**rahnamolik**“ qila boshladilar.

Islomning Markaziy Osiyo ijtimoiy xayotidagi maqomining zaiflashib borishi bilan unga tashqi musulmon dunyosining munosabati xam o'zgarib bordi. Uzoq yillar davomida tashqi olam, xususan, musulmon dunyosi uchun „yopiq“ bo'lib qolgan Markaziy Osiyoga diniy taassubga va zo'raonlikka (ekstremizmga) moyil ajnabiy diniy tashkilotlarning qiziqishi ortib bordi.

O'zbekistan raxbariyati tomonidan mustaqillikning ilk bosqichida mazkur soxaga oid qator chora-tadbirlarning amalga oshirilishi diniy ekstremizm va fundamentalizm yoyilishi dinamikasini

pasaytirishni ta'minladi. Ayni paytda xayotiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, unga butunlay barxam berishga qaratilgan sa'y-harakatlar natijasi, ko'rilayotgan ma'muriy jazo choralari bilan bir qatorda, din xaqida chuqur bilimlarga ega bo'lgan salohiyatli mutaxassislarning mafkuraviy xayotdagi faolligi bilan chambarchas bog'liq.

Mazkur omil bizning anchagina zaif nuqtalarimizdan ekanligi dunyoviy taraqqiyot yo'lini tanlagan O'zbekiston oldida qator qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Ushbu muammoni xal etishga diniy bilimlarni chuqur egallagan mutaxassislarni tayyorlash ishiga samarali xissa qo'shayotgan O'zbekistondagi mavjud madrasalar tizimiga Imom al-Buxoriy nomidagi Mir Arab madrasasi va shu nomdagi Toshkent Islom ma'hadi boshchilik qilmoqda. Ular Qohira shahridagi Al-Azhar dorilfununi va Iordaniya qirolligining Islom dorilfununi kabi yirik islomiy ilm markazlari bilan aloqa bog'laganlar.

O'zbekiston — dunyoviy davlat. Demak, dunyoviy davlatlarda amal qiladigan davlat va din munosabatlari prinsiplari O'zbekistonda xam amal qiladi. Bu prinsiplar moxiyatini yanada teranroq tushunish uchun BMTning „Inson xuquqlari umumjaxon Deklaratsiyasi“, mamlakatimiz Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1998 yilning 1 mayida yangi taxrirda qabul qilingan 23 moddadan iborat „Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida“gi qonun bilan batafsil tanishib chiqmoq lozim.

Vijdon erkinligi demokratiyaning tarkibiy qismidir. Shuning uchun xam BMTning 1948 yilda qabul qilingan „Inson xuquqlari umumjaxon Deklaratsiyasi“ning 18-moddasida „**har bir inson... vijdon va din erkinligi xuquqiga egadir**“ deb yozilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 75-moddasida „Diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatiga aralashmaydi.

Davlat qonunda belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatayotgan diniy tashkilotlar faoliyatining erkinligini kafolatlaydi“ deb belgilangan.

Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni xalollik va poklik, mehr-shafqat va bag'rikenglikka da'vat etadi. Xozirgi zamonda bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining xamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustaxkamlashning muxim sharti xisoblanadi.

Dunyoviy davlatda siyosat va din munosabatining huquqiy me'yorlari.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan borayotgan davlatimizning dinga bo'lgan munosabati nimalar bilan belgilanadi, degan savolga javob berishdan avval „dunyoviylik“ degan tushunchaning o'zi nimani anglatishini aniqlashtirish lozim.

Dunyoviylik diniy e'tiqodning ijtimoiy-madaniy xayot va qolaversa, umummilliy taraqqiyotdagi ahamiyatini inkor etadimi? Agar inkor etmasa, dinning xayotiy voqelikdagi rolini u qanday tushunadi? Ana shu savollarga oydinlik kiritsakkina mustaqil O'zbekistonda dunyoviy jamiyat qurish yo'lida amalga oshirilayotgan sa'y-xarakatlarning, shuningdek siyosat, din va mafkura o'rtasidagi aloqaning, munosabatlarning tub moxiyati ravshanlashadi. Fikrimizcha, taraqqiyotning dunyoviy yo'li sobiq kommunistik mafkura „qoliplari“ga tushmasligi, ya'ni uning daxriylik xamda diniylik emasligiga bog'liq. Bundan dunyoviylik moxiyatan, zikr etilgan ikki qarama-qarshi qutbning, ya'ni diniylik va daxriylikning oralig'ida joylashgan ma'naviy-madaniy

xolat degan xulosaga kelish mumkin. Chunki, u diniylikni xam, daxriylikni xam inkor etmaydi, ularning xar ikkalasini ob'ektiv ijtimoiy xodisa deb e'tirof etadi.

Bundan kelib chiqadigan mantiqiy xulosa shuki, dunyoviylik tushunchasi plyuralizm, ya'ni xurfikrlilikka asoslanadi. Dunyoviy taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatlardagi dinga bo'lgan munosabat demokratik plyuralizm, ya'ni xurfikrlilik tamoyiliga asoslangani tufayli ularda din xayotdagi ijtimoiy-madaniy va ma'naviy-ruxiy muxit rang-barangligini ta'minlovchi xilma-xil tarixiy qadriyatlar silsilasidagi teng xuquqli bo'g'in sifatida qabul qilingan.

Endi O'zbekistonda din va davlat o'rtasidagi munosabatlar haqida to'xtalib o'tsak, XX asrdagi O'zbekiston tarixida 80 yillardagi diniy vaziyat nihoyatda keskin tus olganligi barchamizga ma'lum. 1991 yilga kelib, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, o'zga sohalar qatori diniy sohada ham ma'lum vaziyatni tartibga soluvchi instrumentlar yaratilishiga ehtiyoj yuzaga keldi.

Bunga asosiy sabab sifatida, XX asr 90 yillarida avj olgan diniy tarqoqlik va turli qarashdagi diniy oqimlarning ta'siri avj olishi deb aytish mumkin.

Shu maqsadlarni o'zida ifoda etgan huquqiy asoslar sifatida O'zR Konstitutsiyasining 61-moddasida: "Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi" deb belgilangan. Shu bilan birga, Konstitutsiyaning 18, 31, 48 va 57 moddalarida ham davlat va din munosabatlarida O'zbekiston siyosatining mazmunini ochib beradigan normalar aks etgan.

Dinning davlat ishlaridan ajratilganligi tamoyili davlat tomonidan diniy tashkilotlarning ichki faoliyatiga aralashmaslikni anglatadi. Biroq bu diniy tashkilotlarning faoliyatiga qonunning daxli yo'q degani emas. Diniy tashkilotlarning a'zolari ayni paytda o'z davlatining fuqarolari ham hisoblanadi va ular Konstitutsiyamizning 48-moddasiga ko'ra: "... Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar". Mazkur moddada belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida 1992 yilda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etilgan. Tashkilot har bir shaxsning vijdon va diniy e'tiqod erkinligi huquqi, fuqarolarning dinga bo'lgan munosabatidan qat'iy nazar tengligini ta'minlash, shuningdek, diniy tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vazifalarni hal etish vakolati berilgan davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Sohani tartibga soluvchi asosiy Qonun vazifasini "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun hisoblanib, u bugungi kunga qadar 3 bora qabul qilingan. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida, unda ma'lum moddalar davlat-din o'rtasidagi munosabatlarni to'la ifoda etmaganligidadir. Xususan, 1998-yil 1-mayda qabul qilingan Qonun 23 moddadan iborat bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi qonun loyihasidagi moddalar soni 35 tani tashkil etadi.

So'nggi qabul qilingan Qonun bevosita Global jalb etish instituti prezidenti J.Chen (AQSh), BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining Din va e'tiqod erkinligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Ahmad Shahid va boshqa bir qancha ekspertlar tavsiyalari asosida qayta ishlab chiqilgan. Buning natijasi sifatida O'zbekiston AQShning "Maxsus kuzatuv ostidagi davlatlar ro'yxatidan chiqarilishi bo'ldi".

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari xorij tajribasini inobatga olgan holda o‘rnatilgan. Bundan tashqari, davlat diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirib, turli dinlar va konfessiyalar o‘rtasida vositachi rolini o‘ynaydi va ularning bag‘rikenglik tamoyillariga rioya etishlarini nazorat qilib boradi. Bu borada davlatning roli naqadar muhimligi bugunimiz aytib turibdi.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: “Ўзбекистон”-2021. 464 Б.
2. Бағрикенгик тамойиллари Декларацияси. // ЮНЕСКО Халқаро меъёрий хужжатлари. Т.: Адолат, 2004.
3. Синягина В. Будет уважать друг друга не только в Международном день толерантности. // Новый век. №48. 24 ноября 2005 г.
4. Очилдиев, А. Бағрикенглик – барқарорлик ва тараққиёт омили. – Тошкент: “Тошкент ислом университети” нашриёт матбаа бирлашмаси, 2007. – 132 б.
5. Глебкин, В.В. На пути к толерантному сознанию. – М.: Смысл, 2000. – С. 255.
6. Мчедлова, М.П. Толерантность. – М.: Республика, 2004. – 416 с.
7. Ҳасанбоев, Ў. Ўзбекистонда давлат ва дин муносабатлари: диний ташкилотлар, оқимлар, мафкуравий курашнинг долзарб йўналишлари / Ў.Ҳасанбоев; масъул муҳаррирлар К.Камилов, А.Мансуров. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2014. - 552 б.